

KICHIK TADBIRKORLIKNING EKSPORT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI BARQARORLIGINING STATISTIK BAHOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18907181>

Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich

Namangan davlat universiteti

"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"

kafedra tayanch doktoranti,

katta o'qituvchisi; +99899-321-06-07

abduraxmonov.sherali.86@gmail.com

Soyibjonov Islomjon Sodiqjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"

kafedra o'qituvchisi

soyibjonovislombek93@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi hamda ushbu sektorda band bo'lgan aholi sonining 2010–2024-yillar davomidagi dinamikasi statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida vaqt qatorlari tahlili, markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari yordamida kichik tadbirkorlikning makroiqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati baholangan. Tahlil natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini, ayrim yillarda kuzatilgan pasayishlar esa asosan tashqi omillar, xususan, global pandemiya ta'siri bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar sonining izchil o'sib borishi mazkur sektorning mehnat bozoridagi barqaror va muhim segment ekanini tasdiqlaydi. Maqolada davlat tomonidan amalga oshirilgan institutsional va iqtisodiy islohotlarning kichik tadbirkorlik rivojiga, xususan eksport salohiyati va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish hamda eksport va bandlikni rag'batlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar

kichik tadbirkorlik, eksport ulushi, aholi bandligi, iqtisodiy islohotlar, statistik tahlil, dinamika, valyuta liberallashtirish, kichik biznes subyektlari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, O'zbekiston iqtisodiyoti.

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТАБИЛЬНОСТИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКСПОРТА И ЗАНЯТОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА

Аннотация

В данной статье на основе статистического анализа исследуется динамика доли малых предприятий в экспорте и численности занятых в этом секторе в Республике Узбекистан за 2010–2024 годы. В ходе исследования макроэкономическое и социально-экономическое значение малого бизнеса оценивалось с использованием анализа временных рядов, показателей центральной тенденции и дисперсии. Результаты анализа показывают, что доля малых предприятий в общем объеме экспорта продукции (работ, услуг) имеет долгосрочную положительную тенденцию, а наблюдаемые в отдельные годы спады были в основном обусловлены внешними факторами, в частности, влиянием глобальной пандемии. Также устойчивый рост численности занятых в малом бизнесе подтверждает, что этот сектор является стабильным и важным сегментом рынка труда. В статье научно освещается положительное влияние институциональных и экономических реформ, проводимых государством, на развитие малого бизнеса, в частности, на экспортный потенциал и показатели занятости. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования политики поддержки малого бизнеса и разработки практических рекомендаций, направленных на стимулирование экспорта и занятости.

Ключевые слова

малый бизнес, доля экспорта, занятость, экономические реформы, статистический анализ, динамика, либерализация валюты, малый бизнес, макроэкономические показатели, экономика Узбекистана.

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE STABILITY OF SMALL BUSINESS EXPORT AND EMPLOYMENT INDICATORS

Abstract

This article studies the dynamics of the share of small business entities in exports and the number of people employed in this sector in the Republic of Uzbekistan for 2010–2024 based on statistical analysis. In the course of the research, the macroeconomic and socio-economic significance of small business was assessed using time series analysis, central tendency and dispersion indicators. The results of the analysis show that the share of small business entities in total exports of

products (works, services) has a long-term positive trend, and the declines observed in some years were mainly due to external factors, in particular, the impact of the global pandemic. Also, the consistent growth of the number of people employed in small business confirms that this sector is a stable and important segment of the labor market. The article scientifically highlights the positive impact of institutional and economic reforms implemented by the state on the development of small business, in particular on export potential and employment indicators. The results of the study can be used to improve policies to support small businesses and develop practical recommendations aimed at stimulating exports and employment.

Keywords

small business, export share, employment, economic reforms, statistical analysis, dynamics, currency liberalization, small businesses, macroeconomic indicators, economy of Uzbekistan.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sektorga aylandi. Ushbu sektorning rivojlanishi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlarda O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushining ortib borishi hamda ushbu sektorda band bo'lganlar sonining uzoq muddatli ijobiy dinamikasi mamlakat rahbariyati tomonidan qabul qilingan strategik farmon va qarorlarning amaliy samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning eksport salohiyati va aholi bandligini ta'minlashdagi rolini chuqur statistik tahlil qilishdan iborat. Xususan, 2010–2024-yillar davomidagi vaqt qatorlari asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi va bandlik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi, markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari baholanadi. Tahlil jarayonida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ochiq iqtisodiyot siyosati, valyuta siyosatini liberallashtirishga oid qarorlar, shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" kabi ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarning ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ilmiy asosda o'rganiladi.

Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlikning eksport jarayonlarida va mehnat bozorida mustahkam o'rin egallaganini, vaqtinchalik pasayishlar esa asosan global shoklar (masalan, COVID-19 pandemiyasi) ta'siri ostida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Ushbu maqola kichik tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, uning

eksport salohiyatini oshirish va bandlikni ta'minlashdagi rolini mustahkamlash bo'yicha iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini belgilash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни va ahamiyati jahon iqtisodiyoti nazariyasida uzoq vaqtdan beri o'rganilib kelinayotgan fundamental masalalardan biridir. Klassik iqtisodchilar Richard Kantillon va Adam Smith asarlarida tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari shakllantirilgan bo'lsa [13], zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni shakllantirish, bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy diversifikatsiyadagi roli alohida ta'kidlanadi [14] [15]. Xalqaro tajriba kichik tadbirkorlik subyektlarining ning eksportga yo'naltirilgan faoliyati mamlakatning tashqi savdo tarkibini yaxshilash va global bozorlarga integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim katalizator ekanini ko'rsatadi [16].

S.S.G'ulomov ("Tadbirkorlik va kichik biznes")[4] va [B.Yu.Xodiev](#), M.S. Qosimova, A.N. Samadov ("Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik")[6] kabi mahalliy olimlar mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish jarayonlarini, uning qiyinchiliklari va istiqbollarini o'rganishga qaratilgan asarlar yaratdilar. Ularning ishlari mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy sektorning o'рни va ahamiyatini tushunish uchun asosiy manbalardan hisoblanadi.

U.V.Gafurov ("Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish")[3] nomli doktorlik dissertatsiyasida kichik biznesni rivojlantirishda davlatning tartibga soluvchi rolini chuqur tahlil qilgan. U soliq siyosati, kreditlash mexanizmlari va ma'muriy bariyerlarni bartaraf etish kabi amaliy masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqdi, ular amalda Prezident farmonlari va qarorlarida o'z aksini topgan.

I.E.Kenjaev, M.T.Baltabayev, [Sh.Sh.Abduraxmonov](#) ("Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес")[7] va A.M.Siddiqov, M.T.Baltaboyev, [Sh.Sh.Abduraxmonov](#) ("Formation and Development of Small Business in Uzbekistan")[8] kabi ilmiy maqolalarda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning kichik biznesning rivojlanishiga, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotlar "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida yaratilayotgan qulay investitsion muhitning samaradorligini ilmiy asoslaydi.

Sh.Sh.Abduraxmonov (“O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi”)[9] maqolasida mamlakatimizda kichik biznesning joriy holati, eksport salohiyati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, ushbu maqolada asosan statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. O‘zbekiston va Namangan viloyatidagi kichik tadbirkorlik sub’ektlarining eksport ulushlari dinamikasini 2010–2023 yillar oralig‘ida tahlil qilgan. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlik sub’ektlarining mahsulot, ishlar va xizmatlar eksporti hajmi 2010–2024 yillardagi dinamikasi o‘rganilgan. Tahlil natijalarini statistik ko‘rsatkichlar (o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati va standart og‘ish) orqali baholagan.


Tahlil va natijalar.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi hamda ushbu sektorda band bo‘lganlar sonining uzoq muddatli ijobiy dinamikasi O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan izchil va tizimli iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ijobiy tendensiyalarni mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan strategik ahamiyatga ega farmon va qarorlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish, kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Avvalo, kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi ortib borishi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ochiq iqtisodiyot va eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish modeli bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini kengaytirish va eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash alohida ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur hujjat kichik tadbirkorlik subyektlari uchun eksport faoliyatini amalga oshirishdagi institutsional va byurokratik to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga zamin yaratdi.

Kichik biznes eksportdagi ijobiy o‘sish, ayniqsa, 2018–2024-yillarda jadallashgani Prezidentimizning valyuta siyosatini liberallashtirishga oid qarorlari bilan chambarchas bog‘liqdir. 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son Farmon asosida milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi joriy etildi. Ushbu islohot kichik tadbirkorlik subyektlari uchun eksport tushumlaridan erkin foydalanish, import qilinadigan xomashyo va texnologiyalarni soddalashtirilgan tartibda xarid qilish imkonini berdi. Natijada kichik biznesning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshib, eksportdagi ulushi barqaror ravishda o‘sib bordi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning eksportyorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qarorlari ham ijobiy tendensiyalarning muhim omili hisoblanadi. Xususan, "Eksport faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilingan qarorlar doirasida kichik tadbirkorlik subyektlariga transport xarajatlarini qisman qoplab berish, sertifikatlash xarajatlarini subsidiyalash, eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Statistik jihatdan aynan ushbu mexanizmlar joriy etilgan yillarda kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi sezilarli darajada oshgani kuzatiladi.



1-grafik. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport ulushlari 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi(foizda)[11].

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi hamda xususiy sektor faolligini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichning 2010–2025-yillar (choraklar kesimida) bo'yicha dinamik qatori statistik tahlil qilinarkan, avvalo uning vaqt mobaynidagi o'zgarishlari, markaziy tendensiya ko'rsatkichlari, tarqoqlik darajasi hamda ekstremal qiymatlari baholanadi. Ushbu davrni qamrab olgan statistik ma'lumotlar kichik tadbirkorlikning eksport jarayonlaridagi ishtiroki izchil o'sib borayotganini, ayrim yillarda esa tashqi va ichki omillar ta'sirida tebranishlar kuzatilganini ko'rsatadi(1-grafik).

Tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi minimal darajada 2010-yilda qayd etilib, 13,7 foizni tashkil etgan. Mazkur holat o'sha davrda eksport tarkibida yirik davlat va korporativ sektorning ustunligi

yuqori bo'lganligi, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda mazkur ko'rsatkich sezilarli darajada oshib borgan bo'lib, bu iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi, xususiy mulkchilikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash siyosati bilan uzviy bog'liqdir[11].

Statistik qator bo'yicha hisoblangan o'rtacha arifmetik qiymat 25,6 foizni tashkil etib, bu tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy eksportning qariyb chorak qismidan ortig'ini shakllantirganini ko'rsatadi. Median qiymatning 27,0 foiz darajasida bo'lishi taqsimotning nisbatan simmetrik ekanligini hamda ko'rsatkichlarning asosiy qismi 25–30 foiz oralig'ida jamlanganini anglatadi. Bu holat kichik tadbirkorlik eksportdagi ulushining tasodifiy emas, balki muayyan iqtisodiy tendensiya asosida shakllanayotganidan dalolat beradi.

Tarqoqlik ko'rsatkichlari ham muhim statistik ahamiyatga ega. Standart og'ishning 6,19 foiz punktni tashkil etishi ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatdan ma'lum darajada chetlanishini bildiradi. Bunday tarqoqlik kichik tadbirkorlik eksportining tashqi kon'yunktura, valyuta bozori holati, tashqi savdo siyosati va logistika imkoniyatlariga sezgir ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarqoqlik darajasining haddan tashqari yuqori emasligi mazkur ko'rsatkichning nisbatan barqaror shakllanganini ham tasdiqlaydi.

Vaqt qatori tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013–2019-yillar oralig'ida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 26–27 foiz atrofida barqarorlashgan. Ushbu davrda ko'rsatkichning keskin tebranishlarsiz saqlanib qolishi eksport tarkibida kichik biznesning mustahkam o'rin egallay boshlaganidan dalolat beradi. Bu jarayon ichki bozorning to'yinganligi sharoitida kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga yo'naltirilgan strategiyalarni faol qo'llay boshlaganini ham ko'rsatadi.

2020–2021-yillarda ko'rsatkichning 20–20,5 foizgacha pasayishi statistik jihatdan muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Ushbu pasayish global COVID-19 pandemiyasi, xalqaro savdo zanjirlarining uzilishi, transport-logistika xarajatlarining keskin oshishi hamda tashqi talabning qisqarishi bilan izohlanadi. Statistik tahlil nuqtayi nazaridan bu holat vaqt qatorida vaqtinchalik salbiy shok sifatida namoyon bo'ladi va uzoq muddatli trendni inkor etmaydi.

2022-yildan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi yana yuqori sur'atlarda o'sib, 2024-yilda 34,1 foizga, 2025-yilning to'rtinchi choragida esa 36,6 foizga yetgan. Bu maksimal qiymat tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik eksport salohiyatining eng yuqori darajada namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Statistik jihatdan bunday natija davlat tomonidan eksportyor kichik

biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Choraklar kesimidagi ma'lumotlar qisqa muddatli o'zgarishlarni baholash imkonini beradi. 2025-yil davomida chorakdan chorakka o'sish kuzatilishi kichik tadbirkorlik eksportidagi ulushning mavsumiy tebranishlardan ko'ra barqaror o'sish fazasiga kirganini ko'rsatadi. Bu holat statistik qatorning oxirgi segmentida dispersiyaning nisbatan kamayishi bilan ham tasdiqlanadi.

Umuman olganda, statistik tahlil natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini, vaqtinchalik pasayishlar esa tashqi omillar ta'siri ostida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari mazkur indikatorning iqtisodiy mazmunan barqaror va izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, statistik tahlil kichik tadbirkorlikni eksport jarayonlarida yanada kengroq ishtirok etishini rag'batlantirish iqtisodiy jihatdan asosli va istiqbolli yo'nalish ekanini ilmiy nuqtayi nazardan isbotlaydi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar sonining ijobiy dinamikasi Prezidentimiz tomonidan olib borilgan bandlik siyosati va tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida qarash konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” va “Mahallabay ishlash tizimi” doirasidagi tashabbuslar kichik biznes subyektlari sonining ko'payishiga, mos ravishda bandlikning oshishiga xizmat qildi. Bu tashabbuslar Prezidentimiz farmon va qarorlari bilan mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, kichik tadbirkorlikni aholi bandligini ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biriga aylantirdi.

Pandemiya davrida (2020–2021-yillar) kichik tadbirkorlikda bandlikning qisqa muddatli pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan antikrizis choralar ushbu salbiy holatni tezkor bartaraf etishga imkon berdi. Soliq ta'tili, kredit to'lovlarini kechiktirish, foiz stavkalarini subsidiya qilish, davlat kafolatlari asosida moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi kichik biznes subyektlarining saqlanib qolishiga va ish o'rinlarining tiklanishiga xizmat qildi. Natijada 2022-yildan boshlab kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni yana barqaror o'sish bosqichiga kirdi.

Shuningdek, Prezidentimizning hududiy rivojlanishga oid qarorlari ham kichik tadbirkorlikning eksport va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va klaster tizimining joriy etilishi hududlarda kichik biznes subyektlarining faoliyatini jonlantirdi. Bu esa bir tomondan yangi ish o'rinlari yaratishga, ikkinchi tomondan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lgan aholi soni iqtisodiyotda xususiy sektorning o'рни va ahamiyatini, bandlikni ta'minlashdagi rolini hamda mehnat bozorining tarkibiy xususiyatlarini ifodalovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichning 2010–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakllangan vaqt qatori statistik jihatdan tahlil qilinganda, kichik tadbirkorlikning bandlikni yaratishdagi barqaror va uzoq muddatli tendensiyalari yaqqol namoyon bo'ladi(2-grafik). Ushbu davr mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, xususiy mulkchilikning kengayishi va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar bilan tavsiflanadi.

Statistik qatorning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan 2010-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 8 643,9 ming kishini tashkil etgan[12]. Bu ko'rsatkich o'sha davrda kichik biznes allaqachon iqtisodiyotda muhim bandlik manbai sifatida shakllanganini, biroq hali to'liq salohiyatiga chiqmaganini anglatadi. Keyingi yillarda bandlik ko'rsatkichining izchil oshib borishi kuzatiladi: 2011–2014-yillar oralig'ida u qariyb 1 300 ming kishiga ko'payib, 9 950,8 ming kishiga yetgan. Statistik jihatdan bu holat bandlikning kengayishi jarayoni uzluksiz va barqaror bo'lganini ko'rsatadi.



2-grafik. O'zbekistonda Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi(ming kishi)[12].

2015–2017-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 10 million kishilik chegaradan oshib, 2017-yilda 10 541,5 ming kishini tashkil etgan[12]. Ushbu davrda bandlikning o'sish sur'atlari nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da, umumiy trend ijobiy bo'lib qolgan. Statistik tahlil nuqtayi nazaridan bu holat kichik tadbirkorlikning miqdoriy kengayish bosqichidan sifat jihatdan

mustahkamlanish bosqichiga o'ta boshlaganini ko'rsatadi. Ya'ni, yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda mavjud ish o'rinlarining barqarorligi ham ta'minlangan.

2018-yilda bandlik ko'rsatkichining 10 128,8 ming kishigacha qisqarishi vaqt qatorida muayyan pasayish sifatida qayd etiladi. Statistika jihatdan bu pasayish keskin emas, biroq muhim signal hisoblanadi[12]. Ushbu holat iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida ayrim kichik biznes subyektlarining transformatsiyasi, norasmiy sektorning qisqarishi yoki faoliyat shakllarining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin. Shunga qaramay, 2019-yilda bandlik yana 10 318,9 ming kishiga yetib, tiklanish tendensiyasi kuzatiladi.

2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar sonining 9 865,7 ming kishigacha kamayishi statistik qatorning eng muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Ushbu pasayish global COVID-19 pandemiyasi ta'siri ostida yuzaga kelgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatning cheklanishi, xizmatlar sektorida ish o'rinlarining qisqarishi va ayrim kichik korxonalarning faoliyatini vaqtincha to'xtatishi bilan bog'liq. Statistika tahlil nuqtayi nazaridan bu holat tashqi shok ta'sirida yuzaga kelgan vaqtinchalik nomutanosiblik sifatida baholanadi va uzoq muddatli tendensiyani inkor etmaydi.

2021–2024-yillar oralig'ida bandlik ko'rsatkichining qayta tiklanishi va o'sishi kuzatiladi. 2021-yilda u 10 080,6 ming kishini, 2022-yilda 10 131,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 10 373,3 ming kishiga, 2024-yilda esa 10 628,7 ming kishiga yetgan[12]. Statistika jihatdan bu holat pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonida kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikni ta'minlashdagi yetakchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2024-yilda qayd etilgan maksimal qiymat kichik tadbirkorlikning mehnat bozoridagi barqarorligini va moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Markaziy tendensiya ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, butun davr bo'yicha bandlikning o'rtacha darajasi taxminan 10 million kishiga yaqin shakllangan. Median qiymatning ham ushbu darajaga yaqin bo'lishi statistik taqsimotning keskin assimetriyaga ega emasligini, ya'ni bandlik ko'rsatkichlari asosan o'rtacha qiymat atrofida jamlanganini bildiradi. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarida bandlikning tasodifiy emas, balki muayyan iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Tarqoqlik ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan qaralganda, bandlik sonidagi o'zgarishlar nisbatan cheklangan diapazonda sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Maksimal va minimal qiymatlar o'rtasidagi farq qariyb 2 million kishini tashkil etadi, bu esa 15 yillik davr uchun mo'tadil tebranish sifatida baholanadi. Standart og'ishning nisbatan past darajada bo'lishi kichik tadbirkorlik bandligining umumiy mehnat bozorida barqaror segment ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, statistik tahlil natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni O'zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini, vaqtinchalik pasayishlar esa asosan tashqi va favqulodda omillar bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichning nisbatan barqaror va izchil o'sib borishi kichik tadbirkorlikni bandlik siyosatining asosiy tayanchlaridan biri sifatida baholash uchun ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

O'tkazilgan statistik tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni strategik ahamiyatga ega ekanini ilmiy asosda tasdiqladi. Tahlil qilingan 2010–2024-yillar davomidagi vaqt qatorlari kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi va ushbu sektorda band bo'lganlar soni uzoq muddatli, barqaror ijobiy dinamikaga ega ekanini ko'rsatdi.

1. Eksport salohiyatining o'sishi: kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 2010-yildagi minimal 13,7 foizdan 2024-yilda 34,1 foizga, 2025-yil choraklarida esa 36,6 foizgacha o'sishi kuzatildi. Bu o'sish Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan valyuta siyosatini liberallashtirish (PF-5177) va eksportyorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlarning bevosita natijasidir. Statistik jihatdan, kichik tadbirkorlik subyektlari eksportining markaziy tendensiya ko'rsatkichlari (o'rtacha 25,6%, median 27,0%) bu o'sishning tasodifiy emas, balki iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanganini ko'rsatadi.

2. Bandlikni ta'minlashdagi yetakchi rol: kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2010-yildagi 8,643.9 ming kishidan 2024-yilda 10,628.7 ming kishiga yetib, 2 milliondan ortiq yangi ish o'rni yaratilganini ko'rsatadi. Bu dinamika "Har bir oila – tadbirkor" va "Mahallabay ishlash tizimi" kabi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

3. Tashqi shoklarga chidamlilik: Global COVID-19 pandemiyasi kabi tashqi shoklar ta'sirida 2020–2021-yillarda eksport va bandlik ko'rsatkichlarida vaqtinchalik pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da, davlat tomonidan qabul qilingan antikrizis choralar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) tufayli kichik tadbirkorlik subyektlari tezda tiklanish bosqichiga o'tgan. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy moslashuvchanligi va barqarorligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib, uning eksport va bandlikdagi ulushining

izchil o'sishi mamlakatning ochiq iqtisodiyot va inklyuziv rivojlanish yo'lidan borayotganini ko'rsatadi.

Taklif sifatida quyidagi tadbirlarni keltirishimiz mumkin.

O'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada oshirish va bandlikni ta'minlashdagi rolini mustahkamlash maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Eksportni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish.

Moliyaviy resurslarga uzoq muddatli kirishni ta'minlash.

Inson kapitalini rivojlantirish va malaka oshirish.

Ma'muriy yukni kamaytirish va shaffoflikni oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF-268-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF-228-son.
3. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017. – 309 b.
4. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.
5. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.
6. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2010

7. Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
8. Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov , S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, 11 (Nov. 2022), 76-80.
9. Abduraxmonov S. S. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.
10. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/402/table-data>
12. <https://siat.stat.uz/reports-filed/425/table-data>
13. Characteristics of Small Business Development in Uzbekistan. *Semant Journals*. [URL:<https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/download/1599/1261/1357>]
14. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING IQTISODIY HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR STATISTIK TAHLILI. *Cyberleninka*. [URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-iqtisodiy-holatiga-ta-sir-etuvchi-omillar-statistik-tahlili>]
15. THE ROLE OF SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN'S ECONOMIC DIVERSIFICATION. *IST Journal*. [URL:<https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/279>]
16. Enhancing the Export Potential of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan. *CAJITMF*. [URL:<https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/download/1057/1068/>]